



TASAVVUFSHUNOSLIK ILMI RIVOJIDA NAJMIDDIN KOMILOV ILMIY MEROSINING AHAMIYATI

Adilov Bobomurod Bekmurodovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16401156>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 30-iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 24-iyul 2025 yil

KEY WORDS

*tasavvufshunoslik,
manbashunoslik, tasavvuf
adabiyoti, tasavvuf falsafasi,
ma'naviy meros, ilmiy maktab,
mumtoz adabiyot, tarjima san'ati,
qiyosiy adabiyotshunoslik,
ma'rifatparvarlik*

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek tasavvufshunosligi rivojida muhim o'rin tutgan taniqli adabiyotshunos, manbashunos, tasavvufshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovning hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati va tasavvufshunoslik maktabi tahlil qilinadi. Muallif N.Komilovning o'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishdagi o'рни, tasavvuf adabiyoti va falsafasini tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanishlari hamda shu sohada yaratgan ilmiy maktabi faoliyatini keng yoritadi. Mustaqillik yillarida professor Najmiddin Komilov tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, xususan, tasavvuf ta'limotining chuqur ma'naviy-ma'rifiy mohiyatini ochib berish borasidagi sa'y-harakatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kirish

XX asr oxiri - XXI asr boshlarida milliy ma'naviyatimizning asoslarini qaytadan anglash va tiklash, xalqimizning boy madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish borasida O'zbekiston ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ziyolilar safida professor Najmiddin Komilovning alohida o'рни bor. Tasavvufshunoslik, navoiyshunoslik, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik kabi yo'nalishlarda salmoqli ilmiy meros qoldirgan olim O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda yuzaga kelgan yangi ma'naviy sharoitda yashab ijod qildi va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, xalqimizning boy ma'naviy merosi, xususan, tasavvuf ilmini xalqimizga yetkazish va targ'ib qilish borasida olib borilgan keng ko'lamlı islohotlarda Najmiddin Komilovning xizmatlari beqiyos. U faqat nazariy ilmiy faoliyat olib borish bilan cheklanib qolmasdan, amaliy jihatdan ham mamlakatimizning ma'naviy hayotida, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etdi.

Tasavvuf ta'limotining g'oyaviy-falsafiy asoslari, tasavvuf she'riyati va nasrining badiiy xususiyatlari, tasavvuf arboblarning hayoti va ijodi, ma'naviy merosining tarixiy ahamiyati haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish uchun professor Najmiddin Komilov asarlari muhim manba vazifasini o'taydi. Mazkur maqolada ana shu ilmiy-madaniy doirada ilk bora tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning o'zbek tasavvufshunosligi ilmi rivojidagi, xususan, tasavvuf adabiyoti va falsafasini tadqiq etish borasidagi ilmiy merosi, uning mohiyati va ahamiyatini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tasavvuf adabiyoti va falsafasini tadqiq etish, tasavvuf ta'limotining mohiyatini tushuntirish va targ'ib qilish borasida bir qancha olimlarning xizmatlarini qayd etish mumkin. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ayniqsa, jadal sur'atda

rivojlana boshladi. Mustaqillik yillaridagi bunday erkinlik natijasida professor Najmiddin Komilov tasavvufga oid ko'plab asarlar chop etdi va bu sohada ilmiy maktab yaratdi.

Najmiddin Komilovning hayoti va faoliyati haqida bir qator ilmiy-ommabop maqolalar chop etilgan. Baxtiyor Omon o'zining «Noshir daftari» kitobida shunday yozadi: «Davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilari bo'lgan vazirlik va idoralar rahbarlari, muovnlari, mas'ul xodimlariga islom dinining ma'rifiy vazifasi, tasavvuf ilmining mohiyatini yangi talqinlarda ko'rsatib, ilm-fan, ma'naviyatga o'zgacha mehr-muhabbat uyg'otdi. Islom falsafasi, taraqqiyot falsafasi, o'tish davri psixologiyasini, zamon talablarini anglata bildi» [2].

Oллоhberdi Mahmudov «Komil inson – bashariyat kelajagi» nomli maqolasida Najmiddin Komilov va uning ilmiy merosini yuksak baholaydi: «Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida fikrlovchi allomalar yuzaga kelmoqda. Ular o'z fikrlarida komil inson tarbiyasini oldinga surmoqdalar. O'zbekistonda ham shunday vakolatli olimlar ko'pdir. Ulardan biri Najmiddin Komilov serqirra ijod sohibi. Uning bir qator ilmiy yo'nalishdagi tadqiqotlari ko'p sohalarni qamrab oladi» [8].

Saidolim Olimovning «O'zi bir olam edi...» nomli maqolasida olim shaxsiyatiga doir qimmatli xotiralar bilan birga, uning ilmiy merosiga yuksak baho berilgan. Muallif Komilovni «o'zi bir olam» sifatida ta'riflaydi va uning suhbatlaridan olgan saboqlarini o'quvchilar bilan o'rtoqlashadi [5].

Akmal Saidov «Tafakkur karvonida tasavvuf vodiysiga safar» maqolasida Najmiddin Komilovning ma'naviyat, tasavvuf va adabiyot sohasidagi izlanishlarini yuksak baholaydi. Olimning tasavvufshunoslik sohasidagi kashfiyotlari va tadqiqotlarining ilmiy ahamiyati haqida fikr yuritadi [4].

Malika Berdimurodovaning «Nechun nigohingni tortadi tuproq yoxud piri komil Najmiddin Komilovni eslab» nomli maqolasida muallif ustoz N.Komilovning tasavvuf ta'limoti borasidagi chuqur bilimlari va ma'naviy fazilatlarini haqida so'z yuritadi [6].

Najmiddin Komilov shaxsiyati va ilmiy merosiga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biri 2019 yilda nashr etilgan Baxtiyor Omonning «Ustoz, murabbiy va do'st» maqolasidir. Unda muallif Komilov bilan bo'lgan xotiralarini yoritish bilan birga, olimning ilmiy izlanishlari va ma'naviy qarashlariga ham to'xtalib o'tadi va uni nafaqat ustoz va murabbiy, balki sodiq do'st sifatida ham ta'riflaydi [7].

Do'ktor Malik Abdulhamid va do'ktor Ja'far Muhammad Xalifaning «Adabiyoti forsii O'zbekiston» (O'zbekistonning fors adabiyoti) kitobida Najmiddin Komilovning tarjima san'ati va tasavvuf adabiyoti sohasidagi xizmatlari yuksak baholangan [1]. Mualliflar Komilovning fors-tojik va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi mushtarak jihatlarni yoritishdagi o'rni va tasavvuf adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi mahoratini alohida ta'kidlab o'tishgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar orqali ko'rish mumkinki, Najmiddin Komilov tasavvuf adabiyoti va falsafasi, manbashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima san'ati va navoiyshunoslik sohalarida o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan va ko'plab shogirdlar yetishtirgan olimdir. Uning ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabi faoliyati haqida jiddiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar

Najmiddin Komilov o'zining uzoq yillik ilmiy faoliyati davomida o'zbek tasavvufshunosligi, manbashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida sermahsul ijod qildi. Uning ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabi nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi, balki umuman sharq adabiyoti va madaniyatini o'rganish bobida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik ilmining rivojiga qo'shgan hissasini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, professor N.Komilov tasavvuf ta'limotining nazariy asoslari, uning tarixiy taraqqiyoti, falsafiy-estetik qarashlari, badiiy-estetik xususiyatlarini chuqur tadqiq etdi. Olimning «Tasavvuf», «Tasavvuf va she'riyat», «Hazrati Inson» kabi asarlari tasavvuf falsafasi,

tariqatlar tarixi, tasavvuf arboblari va ularning ma'naviy merosini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. N.Komilov tasavvuf ta'limotining mohiyati, uning tarixiy shakllanishi, asosiy tushuncha va atamalarini, tasavvuf tariqatlarining o'ziga xos xususiyatlarini izchil va tizimli ravishda tahlil qiladi.

Ikkinchidan, N.Komilov tasavvuf klassiklarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, sharhlash va tadqiq etish orqali milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimizni boyitishga katta hissa qo'shdi. U Mavlono Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma'naviy», Farididdin Attorning «Ilohiynoma», «Mantiq ut-tayr», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» kabi asarlarini tarjima qildi va sharhladi. Bu tarjimalar orqali o'zbek kitobxonlari tasavvuf adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Uchinchidan, N.Komilov Alisher Navoiy ijodini tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan tadqiq qilish orqali o'zbek navoiyshunosligiga yangicha yondashuvni olib kirdi. Uning «Xizr chashmasi», «Navoiyning irfoniy qarashlari» kabi asarlarida Navoiy ijodining irfoniy-tasavvufiy mohiyati, so'fiyona qarashlari chuqur tahlil qilingan. Bu orqali Navoiy ijodiyatining yangi qirralari kashf etildi va uning tasavvuf falsafasi bilan bog'liq jihatlari ochib berildi.

To'rtinchidan, professor Najmiddin Komilov tasavvufshunoslik maktabini yaratib, bu sohada ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi. Uning ilmiy rahbarligi ostida tasavvuf adabiyoti, tariqatlar tarixi, tasavvuf falsafasi bo'yicha o'nlab dissertatsiyalar himoya qilindi. Uning shogirdlari bugun o'zbek adabiyotshunosligi va tasavvufshunosligi sohasida muhim tadqiqotlar olib bormoqdalar. Bu esa Komilov maktabining izchil davom etayotganligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, Najmiddin Komilov tasavvuf ta'limotini keng ommaga tushunarli tarzda yetkazish, tasavvuf falsafasi va adabiyotining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini targ'ib qilish borasida samarali faoliyat olib bordi. U Davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasi tinglovchilariga, ya'ni bo'lajak rahbar kadrlarga tasavvuf falsafasi, islom ma'rifati bo'yicha maxsus kurslar o'qidi. Bu orqali rahbar kadrlarning ma'naviy dunyoqarashi, milliy qadriyatlarga munosabati shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Oltinchidan, N.Komilov sharq xalqlari adabiy aloqalari, tarjima san'ati, manbashunoslik va matnshunoslik sohalarida olib borgan tadqiqotlari bilan qiyosiy adabiyotshunoslik rivojiga ham muhim hissa qo'shdi. Uning «Xorazm tarjima maktabi» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida va «Bu qadimiy san'at» asarida tarjima san'atining nazariy masalalari, tarixi va taraqqiyoti keng yoritilgan.

Yettinchidan, professor Najmiddin Komilov qadimiy manbalarni o'rganish, ulardan tasavvuf tarixi va tasavvuf adabiyoti nuqtai nazaridan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqdi. U Toshkent davlat sharqshunoslik institutida «Manbashunoslik va matnshunoslik» kafedrasini boshqargan yillari manbashunoslik sohasida yangi metodologik yondashuvlarni joriy etdi. Bu esa tasavvuf manbalarini ilmiy o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Najmiddin Komilov tasavvuf ta'limotining mohiyati, tariqatlar tarixi, tasavvuf adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, tasavvufning eng muhim g'oyasi – komil inson tarbiyasi, inson ruhiyatini poklash, ma'naviy kamolotga erishish orqali haqiqiy insoniylik darajasiga ko'tarilish. Bu g'oya professor Najmiddin Komilovning barcha asarlarida, xususan, «Hazrati Inson» kitobida keng ko'lamda yoritib berilgan.

N.Komilovning olib borgan ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, tasavvuf faqatgina diniy-mistik ta'limot emas, balki chuqur falsafiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotdir. U insonning ruhiy va ma'naviy kamoloti uchun zarur bo'lgan axloqiy qoidalar va hayotiy tamoyillarni o'zida mujassam etadi.

Professor Najmiddin Komilov o'zining tasavvuf tadqiqotlarida nafaqat tasavvufning tarixiy taraqqiyoti va nazariy asoslarini, balki uning hozirgi zamon uchun ahamiyatini ham ochib berishga harakat qildi. U tasavvufdagi bag'rikenglik, insonparvarlik, ma'naviy kamolot kabi g'oyalarning zamonaviy jamiyat uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa tasavvuf

ta'limotining abadiy qadriyatlarini, uning ma'naviy-axloqiy tizimining hozirgi kunning dolzarb masalalarini hal etishdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, professor Najmiddin Komilov o'zbek tasavvufshunosligi va adabiyotshunosligida chuqur iz qoldirgan olim sifatida tan olinadi. Uning ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, bu sohada yangi tadqiqotlar olib borish uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tasavvufshunosligi rivojida Najmiddin Komilov ilmiy merosining ahamiyati hali uzoq yillar davomida o'z qiymatini saqlab qoladi.

Xulosa va takliflar

Professor Najmiddin Komilovning ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabining o'zbek adabiyotshunosligi va madaniyatshunosligi rivojidagi o'rni va ahamiyati quyidagi xulosalar bilan belgilanadi:

Birinchidan, Najmiddin Komilov mustaqillik yillarida o'zbek tasavvufshunosligi ilmining shakllanishiga asos solgan olimlardan biridir. U tasavvufni ilmiy o'rganish, tasavvuf adabiyoti va falsafasini xalqqa yetkazishda yangicha ilmiy yondashuvni yaratdi. Olimning tasavvuf ta'limotining mohiyati, tushunchalari, tariqatlar tarixi, tasavvuf adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari o'zbek tasavvufshunoslik ilmining nazariy-metodologik asoslarini yaratishga xizmat qildi.

Ikkinchidan, Najmiddin Komilov tasavvufning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini ochib berish, uning chuqur falsafiy-axloqiy mohiyatini tushuntirish orqali tasavvuf ta'limotiga bo'lgan noto'g'ri qarashlarni bartaraf etishga katta hissa qo'shdi. Uning tadqiqotlari tasavvufning faqat diniy-mistik ta'limot emas, balki inson ma'naviyati, ruhiy-axloqiy kamoloti bilan bog'liq ulkan falsafiy tizim ekanligini ko'rsatib berdi.

Uchinchidan, professor Najmiddin Komilovning tasavvuf klassiklarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishi, sharhlashi va tadqiq etishi milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimizni boyitishga katta hissa qo'shdi. Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy kabi tasavvuf adabiyoti namoyandalarining asarlarini tarjima qilish va sharhlash orqali o'zbek kitobxoniga tasavvuf adabiyotining noyob namunalari taqdim etdi.

To'rtinchidan, N.Komilov o'zbek navoiyshunosligiga tasavvufiy yondashuvni olib kirdi va Alisher Navoiy ijodini tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan tadqiq etish metodologiyasini yaratdi. Bu esa Navoiy ijodining yangi qirralarini, uning irfoniy-tasavvufiy qarashlarini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Beshinchidan, N.Komilovning sharq xalqlari adabiy aloqalari, tarjima san'ati, manbashunoslik sohasidagi tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga, qiyosiy adabiyotshunoslik ilmining shakllanishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Uning tarjima nazariyasi va amaliyoti, manbashunoslik va matnshunoslik masalalariga bag'ishlangan asarlari bu sohalarning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirdi.

Oltinchidan, Najmiddin Komilovning tasavvufshunoslik maktabi bugungi kunda o'zbek adabiyotshunosligi va madaniyatshunosligi sohasida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Uning shogirdlari tasavvuf adabiyoti, tasavvuf tarixi va falsafasi bo'yicha yangi tadqiqotlar olib bormoqda, bu sohada yangi ilmiy ishlar yaratmoqda. Bu esa Komilov maktabining davomiyligini ko'rsatadi.

Yettinchidan, professor Najmiddin Komilovning ma'naviyat, tasavvuf va adabiyot sohasidagi ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning tadqiqotlari tasavvuf ta'limotining milliy ma'naviyatimiz rivojidagi o'rni, komil inson tarbiyasining muhimligi, inson ruhiyati va ma'naviyatini yuksaltirishning zamonaviy ahamiyati haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Sakkizinchidan, Najmiddin Komilovning ilmiy va amaliy faoliyati, uning shaxsiy fazilatlarini va ma'naviy qarashlari o'zining hayotiy tajribasi bilan tasavvuf ta'limotining mohiyatini – komil inson tarbiyasining muhimligini ko'rsatib berdi. U faqat nazariy tasavvufshunos emas, balki

amalda o'z hayoti va faoliyati bilan tasavvuf axloqining muhim jihatlarini namoyon etgan inson sifatida e'tirof etiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, Najmiddin Komilovning ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Najmiddin Komilovning tasavvufshunoslik ilmi rivojiga qo'shgan hissasini atroflicha o'rganish maqsadida maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, uning ilmiy faoliyati va merosini monografik tarzda tadqiq etish.
2. Professor Najmiddin Komilovning tasavvufshunoslik maktabini o'rganish, uning shogirdlari va davomchilarining ilmiy faoliyatini tadqiq etish, bu maktabning ilmiy an'analarini davom ettirish.
3. N.Komilovning tasavvuf adabiyoti va falsafasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarining metodologik ahamiyatini o'rganish, uning tasavvuf manbalarini o'rganish, tasavvuf adabiyoti namunalarini tahlil etish, tasavvuf falsafasini tushuntirish bo'yicha ishlab chiqqan ilmiy yondashuvlaridan zamonaviy tadqiqotlarda foydalanish.
4. Najmiddin Komilovning tasavvuf klassiklarining asarlariga yozgan tarjima va sharhlarini ilmiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish, ularni to'ldirish va yangi nashrlarini amalga oshirish.
5. Professor Najmiddin Komilovning ilmiy-ijodiy faoliyatini yorituvchi hujjatli film va boshqa ommabop materiallar tayyorlash orqali uning ilmiy merosini keng jamoatchilikka yetkazish.
6. N.Komilov asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish orqali uning ilmiy merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, bu orqali o'zbek tasavvufshunosligi ilmining xalqaro ilmiy hamjamiyatda tanilishiga hissa qo'shish.
7. Najmiddin Komilov nomidagi ilmiy mukofot ta'sis etish va tasavvuf adabiyoti, tasavvuf falsafasi, o'zbek mumtoz adabiyoti, manbashunoslik sohalarida salmoqli tadqiqotlar olib borgan olimlarni bu mukofot bilan taqdirlash an'anasini yo'lga qo'yish.
8. Tasavvuf ta'limotidagi komil inson tarbiyasi g'oyasini zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etishda N.Komilov ilmiy merosidan foydalanish, bu orqali milliy ta'lim-tarbiya tizimimizni boyitish.

Professor Najmiddin Komilovning ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabi faqat o'zbek adabiyotshunosligi uchun emas, balki jahon madaniyati va ma'naviyati rivoji uchun ham qimmatli ma'naviy xazina hisoblanadi. Uning tadqiqotlari tasavvufning chuqur falsafiy-axloqiy mohiyatini, inson ruhiyatini poklash va ma'naviy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bu esa hozirgi globallashuv davrida, ma'naviy-axloqiy inqiroz xavfi kuchayib borayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, Najmiddin Komilov ilmiy merosi va tasavvufshunoslik maktabi faoliyati nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. رایزنی فرهنگی: هند - ادبیات فارسی ازبکستان. دکتر ملک عبدالحمید، دکتر جعفر محمد خلیفه. ۱۷۳-۱۷۴ ص. - (۲۰۰۴) دهلی نو، ۱۳۸۴ - «خانه فرهنگ ایران» سفارت جمهوری اسلامی ایران
2. Baxtiyor Omon. Noshir daftari. - Toshkent: «Sharq», 2019. - B.7.
3. Baxtiyor Omon. Ustoz, murabbiy va do'st. / Noshir daftari. - Toshkent: «Sharq», 2019.
4. Saidov A. Tafakkur karvonida tasavvuf vodiysiga safar. / «Kitob dunyosi» gazetasi, 2012 yil 5 oktyabr.
5. Olim S. O'zi bir olam edi... - «Imom al-Buxoriy saboqlari», 2013 yil, 2-son. - B.101-103.
6. M. Berdimurodova. Nechun nigohingni tortadi tuproq yoxud piri komil Najmiddin Komilovni eslab. / «Karvon qo'ng'irog'i», 2013 yil 5 fevral.
7. Baxtiyor Omon. Ustoz, murabbiy va do'st. / Noshir daftari. - Toshkent: «Sharq», 2019.

8. Mahmudov O. Komil inson – bashariyat kelajagi. /Javohirnoma. VII risola: Latofatnoma. / Mas'ul muharrir va so'nggi so'z muallifi: Ja'far Muhammad Termiziy. Toshkent: «Shhf», 2022.– B.415-424.
9. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: «Movarounnahr», 2009.
10. Komilov N. Hazrati Inson. – Toshkent: «NMIU», 2012.
11. Komilov N. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: «Adabiyot va san'at», 2001.
12. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2005.
13. Komilov N. Bu qadimiy san'at. – Toshkent: «G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at», 1988.
14. Komilov N. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. – Toshkent: «Fan», 1970.
15. Komilov N. Xorazm tarjima maktabi. – Toshkent: «Fan», 1986.
16. Komilov N. Ruhlar dialogikasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997.
17. Komilov N. Mavlono Jaloliddin Rumiy. – Toshkent: «Fan», 1993.
18. Rumiy J. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi daftar. Tarjimon: N.Komilov. – Toshkent: «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi», 1992.
19. Attor F. Ilohiynoma. Tarjima va izohlar muallifi: N.Komilov. – Toshkent, 1994.
20. Jomiy A. Bahoriston. Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi: N.Komilov. – Toshkent, 1997.
21. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Tarjimon: N.Hasan, muharrir: N.Komilov. – Toshkent: «Istiqlol», 1999.
22. Komilov N. Alisher Navoiyning irfoniyl qarashlari // Navoiyga armug'on. – Toshkent, 1991.
23. Komilov N., N.Murodov. Ogahiy nazmi: xalqchillik, estetik ideal, mahorat. – Toshkent: «Tafakkur», 2010.
24. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 1999.
25. Komilov N. Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti. // «Imom Buxoriy saboqlari», 2000, №1.
26. Komilov N. Tasavvufning jahonshumul ahamiyati. // «Ma'rifat», 2000, №29-30.
27. Komilov N. Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband. // Bahouddin Naqshband: hayoti va ijodi. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent, 2003.
28. Komilov N. Sharq she'riyatining asosiy xususiyatlari. // «Sharq yulduzi», 2004, №3.
29. Komilov N. Fariduddin Attor va so'fiylik she'riyati. // «Sharqshunoslik», 1999, №9.
30. Komilov N. Tasavvufni anglab, o'zligimizni anlaymiz. // «Hayot va qonun», 2004, №4.
31. Komilov N. Insonni anglab, olamni anlaymiz // «Imom Buxoriy saboqlari», 2007, №1.
32. Komilov N. Ilm-fanning buyuk forumi. // «Milliy tiklanish», 2004, 24 iyun.
33. Komilov N. Imom Moturidiy abadiyati. // «Milliy tiklanish», 2000, 3 oktyabr.
34. Komilov N. Ma'naviy bag'rikenglik – jamiyat taraqqiyotining asosi // «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2011, 29 iyul.
35. Komilov N. Ma'naviy yuksalish cho'qqisi. // «Fidokor», 2003, 16 oktyabr.
36. Komilov N. Ibn Sino va tasavvuf. // «Imom Buxoriy saboqlari», 2004, №1-2.
37. Komilov N. Jomiy va o'zbek adabiyoti. // «O'zbek tili va adabiyoti», 1999, №6.
38. Komilov N. Xorazm Ma'mun akademiyasi va ilmiy anjuman// «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2006, 10 noyabr.
39. Komilov N. Haqiqat tajallisi. // «Sharq yulduzi», 2000, №3.